
RAG‘BAT BOSH OMIL

Prezidentimiz tomonidan 2024 yil 12 fevral kuni o‘tkazilgan videselektorda ipakchilikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Tarmoqda keskin o‘zgarish qilish zarurligini ta’kidlab, bir qator topshiriqlar berildi.

Bugun tuman hokimligida faol va lider ayollar ishtirokida ipak qurti boqishga jalb qilish bo‘yicha seminar o‘tkazildi.

Seminarda viloyat hokimi o‘rinbosari Komila Kavlonova, tuman hokimi o‘rinbosari Muqaddas Bekmirzayevalar qatnashdilar.

- Odatda ipak qurtini ikki toifa odamlar boqishadi. Birinchisi ishsizlar, ikkinchisi avloddan-avlodga o‘tib kelgan an‘ana bo‘yicha boquvchilardir. Rishtonda ipak qurti boqish bo‘yicha o‘ziga xos tajriba bor, deydi viloyat hokimi o‘rinbosari.

Lider ayollar ipak qurti boqish bo‘yicha o‘z tajribalarini o‘rtoqlashdilar. Har bir ishda rag‘bat bosh omil. Seminarda ilg‘or pillakorlarni doimiy rag‘barlantirib borishga kelishib olindi.

Joriy yilda tumanda 2292 quti ipak qurti parvarishlanadi. 137 ming tonna pilla xom ashyosi yetishtirish ko‘zlangan.

2024-03-01 09:41:45